

## O‘YIN FAOLIYATI ORQALI IJTIMOIY ADAPTATSIYA VA MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

*Eshqurbanova Zulfizar Ilhomjon qizi*

*QarshiDU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin faoliyati orqali ijtimoiy adaptatsiya va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘yin turlari, ularning tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari, bolalarning jamoaga moslashuvi hamda mas’uliyat hissini rivojlantirishda tutgan o‘rni tahlil qilingan. Muallif o‘z tajribasi asosida samarali yondashuvlar va metodik tavsiyalarni ham ilgari suradi.

**Kalit so‘zlar:** o‘yin, adaptatsiya, mas’uliyat, maktabgacha yosh, moslashuv, metodika.

### **Kirish**

Hozirgi vaqtida ta’lim tizimi insonparvarlik tavsifiga ega bo‘lib, unda umuminsoniy qadriyatlar, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin rivojlanishi ustuvor hisoblanadi. Ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim dastlabki va eng muhim bosqichidir. Bolada axloqiy tarbiyani shakllantirish bola shaxsini har tomonlama tarbiyalashning muhim shartidir. Bolaning nafaqat muvaffaqiyatli tarbiya topishi, balki hayotiy pozitsiyasining shakllanishi maktabgacha yoshdagi bola axloqiy jihatdan qanday tarbiyalanganiga bog‘liq, chunki bu davrda bolada tashabbuskorlik, tashkilotchilik, kommunikativlik, mustaqillik, mas’uliyatlilik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limida qadriyatlarga tayanish uning muvaffaqiyatini ta’minalashga yordam beradi. Zamonaviy sharoitda bolalarda ijtimoiy adaptatsiya va mas’uliyat shakllantirish muhim masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, bu sifatlarning bolalik davridayoq shakllanishi ularning kelgusidagi hayotiy muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’lim davri–bola shaxsi asoslari, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatga kirishish ko‘nikmalari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘yin faoliyati bola uchun nafaqat dam olish yoki zavqlanish vositasi, balki jamiyatga moslashish, o‘zini anglash va mas’uliyatlari xatti-harakatlarni egallahashning kuchli pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Asosiy qism**

#### 1. O‘yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin faoliyati ularning tabiiy ehtiyoji va asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar hayotni, atrofdagi odamlarni, kasb-hunar va munosabatlarni aynan o‘yin orqali anglaydilar. O‘yin bolaning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini, fikrlash tarzini va ijtimoiy rollarni qanday qabul qilganini

aks ettiradi. Shuning uchun ham pedagogika fanida o‘yin faoliyatining ahamiyati chuqur o‘rganilgan. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xos bo‘lgan faoliyat turlarini uyg‘unlashtirish bolalar faoliyat ko‘rinishlarining qiziqarlilik va kreativlik ko‘rsatkichlarini mukammallashtiradi. Xususan, bolalarning o‘yin, bilish va mehnat faoliyatlarini topshiriqlar tizimi bilan original uyg‘unlashtirish yoki kombinatsiyalash maktabgacha yoshdagi bolalarda yangi va qiziqarli bo‘lgan faoliyat turiga jalb etish imkoniyatini beradi. Bu faoliyat turlari ichida o‘yin faoliyati maktabgacha ta’lim sohasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Zero, psixolog V.S. Muxina ta’kidlaganidek, o‘yin bolani hayotga tayyorlaydi, lekin uni majburiy tarzda emas, balki qiziqarli va tabiiy sharoitda amalga oshiradi. O‘yin orqali bola o‘zini jamiyat a’zosi sifatida his qiladi, muomala, muloqot qilish, birga yashash, nizolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

O‘yining pedagogik funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

➤ **Tarbiyaviy funksiyasi:** axloqiy me’yorlarni egallah, “yaxshiyomon”ni farqlash, itoatkorlik, tartibga bo‘ysunish.

➤ **Rivojlantiruvchi funksiyasi:** tafakkur, nutq, xotira, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish.

➤ **Ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi:** jamoada o‘ynash, rollar almashinushi, ijtimoiy o‘ringa moslashish.

Masalan, “Shifokor” o‘yini orqali bola boshqalarga yordam berish, rahmdillik, javobgarlikni his qilishni o‘rganadi. “Do‘konchi” o‘yini orqali esa muloqot, hisobkitob, tartib, navbatga rioya qilish kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Shu sababli tarbiyachi bolaning o‘yin faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali uni hayotga moslashgan, mas’uliyatli inson sifatida tarbiyalashi mumkin.

2. Ijtimoiy adaptatsiya va mas’uliyat: tushuncha va bog‘liqlik

**Ijtimoiy adaptatsiya** deganda bolaning yangi ijtimoiy muhitga, ya’ni jamoa, guruh, bolalar bog‘chasi, oila tashqarisidagi odamlar bilan munosabatga kirishishiga moslashuvi tushuniladi. Bola hayotining ilk yillarda u faqat oilaviy ijtimoiylashtirishga duch kelsa, maktabgacha ta’lim bosqichida u kengroq ijtimoiy muhit bilan tanishadi.

Bu jarayonda bola:

- boshqalarni eshitish;
- o‘z navbatini kutish;
- o‘z fikrini ifodalash;
- qoidalarga amal qilish;
- nizolarni hal qilishni o‘rganadi.

**Ijtimoiy mas’uliyat** esa bolaning o‘z xatti-harakati uchun javob berish hissi, boshqalarga nisbatan o‘z burchini anglashdan iborat. U quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- topshiriqni bajarayotganda uni oxirigacha bajarishga intilish;

- boshqalarning huquqlariga hurmat bilan qarash;
- o‘z aybini tan olish va uni tuzatishga harakat qilish;
- jamoaviy ishda o‘ziga yuklangan rolni to‘g‘ri bajarish.

Shunday qilib, ijtimoiy adaptatsiya bolaning tashqi muhitga moslashuvi bo‘lsa, mas’uliyat ichki xulqiy nazorat tizimidir. Ularning ikkalasini ham o‘yin orqali rivojlantirish mumkin. Masalan, bolalar “navbatchi” o‘yinida o‘z burchlarini o‘z vaqtida bajarishga odatlanadilar, bu esa mas’uliyatni o‘rgatadi va jamoaga foydali bo‘lishni taqozo etadi.

### 3. Samarali o‘yin turlari va uslublari

O‘yin faoliyatida bola nafaqat dam oladi, balki ijtimoiylashadi, o‘zini anglaydi, jamiyat talablariga mos ravishda xulq-atvor shakllantiradi. Shuning uchun quyidagi o‘yin turlari samarali hisoblanadi:

#### a) *Rolli o‘yinlar*

Rolli o‘yinlar bolaning fantaziyasi, tasavvuri va empatiyasini rivojlantiradi. Bunday o‘yinlarda bola turli ijtimoiy rollarni bajaradi: ona, otaxon, shifokor, o‘qituvchi, haydovchi va boshqalar. Bu orqali bola:

- boshqa odamlar rolini his qiladi;
- o‘z rolini tushunadi;
- o‘zini jamiyatda muhim a’zo sifatida ko‘radi.

Masalan, “Doktor” o‘yinida bolaning bemorga nisbatan rahmdilligi, yordam berishga intilishi – bu ijtimoiy mas’uliyatning ifodasidir. O‘yinda bola nafaqat rolga kiradi, balki qoidaga bo‘ysunadi, jamoaga moslashadi.

#### b) *Didaktik o‘yinlar*

Bu o‘yinlar o‘qitish maqsadida qo‘llaniladi. Ular orqali bola:

- mantiqiy fikrlash;
- muammoli vaziyatni hal qilish;
- axloqiy me’yorlarni tushunish;
- turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Masalan, “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” o‘yinida tarbiyachi bolaga hayotiy vaziyatlar taqdim etadi: “Do‘sting o‘yinchoqni sindirib qo‘ydi. Sen nima qilarding?” — bu orqali bola vaziyatga baho beradi va ijtimoiy-huquqiy qaror qabul qilishga odatlanadi.

#### c) *Harakatli va guruhli o‘yinlar*

Harakatli o‘yinlar bola jismoniy faolligini oshiradi, lekin undan ham muhimrog‘i – bu o‘yinlar orqali:

- jamoa bilan ishlash;
- navbat kutish;
- guruhda harakat qilish;
- boshqa bolalarga yordam berish kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Masalan, “Estafeta” o‘yinida bola o‘z jamoasining g‘alabasi uchun mas’ul ekanligini his qiladi, kech qolmaslikka harakat qiladi, bu esa mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantiradi.

4. O‘yin orqali ijtimoiy moslashuvni shakllantirish metodikasi

O‘yin orqali ijtimoiy adaptatsiya va mas’uliyatni shakllantirishda pedagog quyidagi metodik yondashuvlarga amal qilishi lozim:

*a) Maqsadli rejajashtirish*

Har bir o‘yin oldindan pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak: bu o‘yin orqali qanday ijtimoiy sifatlar tarbiyalanadi, qaysi xulq-atvor tuzatiladi – bular oldindan rejajashtiriladi.

*b) Vaziyatli yondashuv (situatsion)*

O‘yin mazmunida real hayotga o‘xshash vaziyatlar yaratiladi. Masalan, “Mehmon keldi” o‘yini orqali mehmon kutish madaniyati, muomala etikasi, navbat kutish odobi o‘rgatiladi.

*c) Refleksiv tahlil*

O‘yindan so‘ng bolaning ishtiroki muhokama qilinadi:

- kim qanday rolni bajardi?
- kim yordam berdi?
- qanday vaziyat yuzaga keldi?
- bu vaziyatda qanday harakat to‘g‘ri edi?

Bu tahlil orqali bola o‘z harakati uchun javobgarlikni anglaydi va o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi.

*d) Individual yondashuv*

Har bir bolaning qiziqishlari, fe’l-atvori, ijtimoiy tayyorgarlik darajasi inobatga olinadi. Ichki tortinchoq bolalarni asta-sekinlik bilan faol ishtirokga jalb qilish, faol bolalarni esa boshqalarga yordam berishga yo‘naltirish kerak.

Demakki, mas’uliyatlilik shaxsiy sifat ko‘rinishida bolalar xatti-harakatlari va faoliyatida boshqaruvchi hisoblanadi, bu tasodifiy epizodik hodisa emas, balki nisbatan turg‘un ta’lim bo‘lib, u atrofdagi insonlar munosabatida, ular tomonidan bolaga ahamiyatli ishonch bildirish va unga nisbatan aniq talablarni qo‘yilishida namoyon bo‘ladi. Mas’uliyatlilik bolalarning o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyatida ko‘rinadi.

Bolalarning o‘zlari tomonidan rivojlantiriladigan ijodiy o‘yinlar ta’lim-tarbiya uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ularda bola shaxsi atroflicha to‘liq shakllanib boradi. Ijodiy o‘yin ularga atroflicha ta’sir ko‘rsatib, u bolaning boshqa bolalar bilan mustaqil muloqoti va ijtimoiylashuvidan dastlabki pog‘onalardan biridir. O‘yinda bola jamoadoshlari safiga kiradi, bu esa aniq bir tarzda uning rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlaydi. O‘yining bolani o‘ziga xos tarzda jalb etishi, unga odatiy hayotdagiga nisbatan mazkur jarayonda ko‘p gapirishi, yon berishi, toqat qila olishi bilan farqlanadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, o‘yin mazmuni murakkablashib borishi bilan bolalar mustaqil faoliyatga tayyor bo‘la boshlaydi, ya’ni maqsad qo‘yishni, rejalashtirishni, natijaga erishishni o‘rganadi, bular esa mas’uliyatlilikni shakllantirish uchun asos hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF5198-son “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari ro‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari-2018 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sон Qarori
4. Abdullayeva M.A “O‘yin mashg‘ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish” “Fan va texnologiya” 2016 yil
5. Djurayeva R, Tojiboyeva H.M, Nazirova G.M “Maktabgacha ta’lim yoshdagи bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” Toshkent 2015 yil.
6. Qurbonova R., Sattorova N. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya markazi, 2024. – 165 b.
7. Qodirova N.M. Maktabgacha yoshdagи bolalarning psixologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021. – 188 b.
8. Sultonova D.N. *Bolalar psixologiyasi va ijtimoiylashuvi*. – Samarqand: “Ilm ziyo”, 2022. – 176 b.
9. Ergasheva N.M. *Ijtimoiy pedagogika: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2021. – 212 b.